

INQIROZLI OILALARDAGI MUAMMOLAR (DEVIANT OILA)

Zarina Murodullayeva

Samarqand davlat universiteti talabasi

O`ralxon Luxmonov

Samarqand davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada muammoli oilalar, nizoli, axloqsiz oilalar bilan ishlash haqida, farzand tarbiyasida ijobiy, salbiy holatlar haqida uning oldini olish chora-tadbirlari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so`zlar: *Muammoli oilalar, nizoli, axloqsiz oilalar, ota-ona, oila a'zosining vazifalari, turar-joy, yashash joyi masalasi.*

KIRISH. Muammoli oilalar deb, Minuxin oila ichidagi mavjud tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlarning buzilishini tushunadi. Masalan, "pa-de-de" tipidagi oila (frantsuzcha pas de deux – ikki kishi raqsi ma'nosini bildiradi) odatda faqat ikki kishidan iborat bo'lib, bunday oilada farzand bo'lmaydi. Yoki farzandlari allaqachon "uchirma" qilingan bo'lib, ota-ona xonadonini tark etgan bo'ladi. Bu kabi oilalardagi o'zaro munosabatlar anchagina tarang bo'lib, aksariyat holatlarda bunday kechinmalar vaqtincha xarakterga egadir. Unda naslni davom ettirish, bola tarbiyasi kabi muammolarning mavjudligi er-xotin munosabatlariga rahna soladi. Ko'p farzandli oila ("choriq" tipli oila) munosabatlar tizimi serqirra bo'lgan oiladir, unda ba'zan, farzandlarning to'ng'ichi ota-onalardek yuqori pog'onaga ham ko'tarilib qoladi. Bunday oiladagi munosabatlarning yaxshi bo'lishi uchun ota-ona har bir oila a'zosining vazifalari va oiladagi maqomlarini aniq tasavvur qilib, bo'lib berishi, to'ng'ich bola bilan kichiklar o'rtasidagi muomala qoidalarini bolalikdan bir maromda yo'lga qo'yilgan bo'lishi talab etiladi. Bu erda ota-ona tuzilmasi, ya'ni, ota-onaning mavqei, obro'si kuchli va etakchi bo'lishi shart.

Distant oila yoki "akkordeon" tipidagi oilada a'zolardan kimdir, bu ko'p hollarda ota – u yoki bu sababga ko'ra oila a'zolari bilan kam ko'rishadi

(uzoq muddatli safardagi dengizchi, harbiy xizmatchi, geolog, neft qazuvchi kabi). Ota bunday holatlarda o'zaro muomala jarayonlarida yo jismonan mavjud shaxs sifatida yoki ramziy tarzda ota sifatida ishtirok etadi. Oilada er-xotinlik aloqalari ham, ota va bola munosabatlari ham bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ham aziyat chekib turadi. Gohida oilada go'yoki yashirin qolipda ajrim turganday bo'ladi. Lekin ayni shu holat ko'pincha distant oilaning ajrim bo'lgan oiladan afzal ekanligini ko'rsatadi.

Beqaror oila tarkiban ham, turar-joy, yashash joyi masalasida ham o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, ayrim ayollar birinchi nikohidan ajralganidan so'ng tez-tez erkaklarni almashtiradi, toki ko'ngliga ma'qul bo'lgan insonni topmagunicha turlicha munosabatlar tizimida bo'ladi. Bu farzandlar tomonidan yaxshi qabul qilinmaydi, ona bilan bolalar munosabatlari hamisha taran turadi. Shunga o'xshash holatlar tez-tez turar joyini almashtirishga moyil oilaga ham xosdir. Munosabatlar tarangligi nafaqat shu oilaning ichida, balki yangi turar joyga kelib yangi tengdosh o'rtoqlar va sinfdoshlar orttiradigan bolalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiydir.

Oila muammosi azaldan insoniyatning diqqat markazida bo'lib kelgan. Chunki oila mustahkamligi jamiyat faravonligining asosiy negizidir. Shu sababli Respublikamiz rahbariyati har bir xonadonning tinchligini, oilalarda farzandlarning baxtli, barkamol o'sishini ta'minlashga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirmoqda. Oilaviy muammolar yechimini o'rganish borasida respublikamiz psixolog olimlari tomonidan bir qator diqqatga sazovor ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va oshirilmogda. Jumladan, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, N.A.Sog'inov, X.K.Karimov, Sh.Sh.Jo'rayeva, F.A.Akromova, R.M.Abdullayeva, Yo.No'monova, M.O.Utepbergenov, R.A.Samarov, T.Norimbetov kabi olimlarimiz va ularning izdoshlari tomonidan so'nggi yillar davomida o'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari, er-xotin nizolari, oilaviy rollar taqsimoti, oilalardagi shaxslararo munosabatlar hamda oilaviy muammolar kabi masalalar o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar respublikamizda oilani ijtimoiy-psixologik nuqtai-nazardan tadqiq etish bo'yicha ma'lum bir o'ziga xos an'analarning yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Oilaviy muammolarni o'rganish maqsadida olingan test

natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilaviy muammolar o'zaro munosabatlardagi kelishmovchilik, o'zini tuta olmaslik, turmush o'rtog'idan mamnun bo'lmaslik, zerikarli hayot, oilaviy burchlarning taqsimlanishi, janjalkashlik, o'ta manmanlik, xulq-atvordagi nomukamallik, moddiy qiyinchiliklar, jizzakilik kabi oila a'zolariga xos xatti-harakatlar va xarakter xususiyatlaridan kelib chiqar ekan. Yana shu narsaga amin bo'ldikki inson o'zi ideal insonni izlarkan. Ko'p holatlarda er-xotinlarning bir-biridan qoniqmaslik (ish vazifalaridan norozilik), gumonsirash, tanqid, tanbeh kabilar ham ko'pgina muammolarni keltirib chiqarishini bildik. Oila a'zolari oilada bir-birini o'zaro tushunmaslik, xarakter xususiyatlarining bir-biriga to'g'ri kelmasligida deb bilsalar, ayrimlarida ayol kishi noroziligi, tanbehlari erkakdan o'zini ustun qo'yishi deb bildilar. Bundan shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilaviy muammolarning asl sababi oilalarda pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligidadir. Buning uchun mahallalarda bu borada keng qamrovli ishlarni olib borish, mahalla yig'inlarini oilalar bilan hamkorlikda amalga oshirish, oilalarning mahallaga bo'lgan ishonchini, psixolog va pedagoglarga bo'lgan ishonchini oshirish masalalarini hal etish lozim. Konstitutsiyamizning 76-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega", degan qoida mustahkamlab qo'yilgan.

O'zaro oilaviy munosabatlarning namoyon bo'lishi va oqibatlarini.

Kishilik jamiyati yuzaga kelibdiki, insonlar orasidagi ijobiy va salbiy munosabatlar barcha kishilarning diqqat markazida muhim masalalardan bo'lib kelgan. Shuning uchunbu masalalar qadim zamonlardan boshlab xalq og'zaki ijodi namu- nalarida, doston, qo'shiq va ertaklarda, donishmandlarning fikr va qarashlari sifatida o'ziga xos ravishda munosabat bildirish va tahlil qilish obyektini bo'lib kelgan.

Qaysi mutafakkir yoki olim, shoir yoki yozuvchining asar- larini olib ko'rmang, ularning hech qaysisi o'z ijodiy faoliyatida inson hissiyotlarining eng kuchli va sirlisi, serjilo va sehlisi hisoblangan muhabbatni chetlab o'ta olmagan. Insoniyat bor ekan, muhabbat odamni sirli tuyg'ular olamiga yetaklagan, uni yengib bo'lmas g'ovlardan o'tishga va cho'qqilarni izab tetishga undagan, uni rag'batlantirgan, unga baxtiyor onlarni tuhfa et- gan. Hatto o'lim to'shagida yotgan kishiga ham

umid bag'ish- lab, hayot nash'asini surdirgan, oddiy kunlariga kamalak jilolarini arg'umon etgan, uning atrof-muhitni hamda o'zligini idrok qilishi uchun turtki bo'lgan. Shaxs ruhiyatida hatto o'ziga ham noma'lum bo'lgan qudratni kashf etgan. Ko'hna va hamisha navqiron hisoblangan bu insoniy tuyg'u hammaga barobar aziz vamuqaddasdir.

Sharqda qadimgi Xitoy ilmiy qarashlarida Konfutsiy ta'limoti, Hindistonda Budda, Islom olamining muqaddas Qur'on va hadislarida insonlar orasida yaxshi insoniy munosabatlarini qaror toptirish lozim ekanligi aytib o'tilgan. Deyarli bir davrda, boshqa-boshqa joyda Hindistonda Budda, Xitoyda Konfutsiy ta'limotlarida bir g'oya, qarash shakllanganini kuza-tish mumkin: «O'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ravo ko'rma». Konfutsiy merosida asosan odamlar orasidagi munosabat, insonparvarlik, do'stlik, insonni sevish jihatlariga keng o'rin berilgan: «Odamlarni sevish va iliq munosabatda bo'lish deganda o'zini inkor etish emas, balki boshqa odamlarni ham, o'zini ham bir xil ko'rish kerak» ekanligi talqin etilgan.

Inqirozli oilani psixologik qo'llab-quvatlash va yordam berish.

Oila deb atalmish muqaddas makon, «oila qasri»ning mustahkamligi shu qasrning poydevori bo'lmish nikoh oldi omillari xususiyatlariga, ularning qay darajada to'g'ri va mustahkam qo'yilishiga bog'liq. Agar shu poydevor yetuk, mustahkam bo'lsa, uning ustida qurilgan imorat ham ko'rkam, yorug', unda istiqomat qiluvchilarga qulaylik, xotirjamlik, tinchlik, huzur-halovat bag'ishlaydigan bo'ladi.

Hech bir devor yoki uy poydevorsiz bo'lmaganidek, Sizing qurajak oilangizning ham o'ziga xos poydevorlari bor. Ular shu oilaning yuzaga kelishiga, qurilishiga asos bo'lgan nikoh oldi omillaridir.

Agar shu nikoh oldi omillarining oilani yuzaga kelishiga ta'siri noo'rin bo'lsa, u shoshilinch, bo'sh, qiyshiq qurilsa, uning ustiga o'rnatilgan oila imoratining devori ham qiyshiq va omonat bo'lib boraveradi va u shu imoratning bir kuni kelib qulashi, buzilib ketishi xavfini tug'diradi. Bunday poydevor ustiga qurilgan imorat qulab tushmagani, buzilib ketmagani taqdirda ham unda istiqomat qiluvchilarga xotirjamlik, tinchlik, quvonch baxsh eta olmaydi. Ular doimo qandaydir bir xavotirda, hadikda, noqulaylikda, xijolatda yashashlariga to'g'ri keladi.

Gap nikoh oldi omillari haqida borar ekan, shuni ta'kidlab o'tish joizki, nikoh oldi omillari u yoki bu nikohning yuzaga kelishiga asos bo'lgan ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, fiziologik, ma'naviy, axloqiy va bugungi kunlarimiz uchun eng muhim bo'lmish psixologik omillarni o'zida mujassamlashtirgan, ko'p qirrali omillar kompleksidan iborat bo'ladi.

Demografik nuqtayi nazardanolinganda, oila qurish ma'lum bir kishilarning emas, balki butun bir avlodning oila qurishi nazarda tutiladi. Bu o'rinda to'liq ishonch bilan aytish mumkinki, avlod yosh jihatdan qanchalik katta bo'lsa (uning yoshi qanchalik yuqori bo'lsa), u biz ko'rib chiqayotgan jihatlarning har biri bo'yicha ko'proq yetuk bo'ladi. 20—24yoshdagi yosh guruhini o'ziga birlashtirgan yosh guruhi, 20 yoshdan kichik bo'lgan avlodga qaraganda ko'proq hayotiy tajribaga ega bo'ladi. Birinchi avlod vakillarida ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik darajasi yuqoriroq bo'ladi, chunki aynan shu yoshda ko'pchilik yoshlar o'rta yoki oliy o'quv yurtlarini tamomlagan, u yoki bu kasb-hunarni egallagan bo'ladilar. 25—29 yoshlarda esa 20—24 yoshdagilarga qaraganda, ijtimoiy-iqtisodiy va kasb-hunar yetukligi bo'yicha yanada yuqoriroq darajaga ega bo'ladilar. Hozirgi zamon demografiyasida keng foydalaniladigan ushbu ko'rsatib o'tilgan kabi statistikalar va yosh guruhlari yoshlarning ijtimoiy yetukligining turli jihatlarini ijtimoiy psixologik tahlil qilish uchun juda noqulay hisoblanadi. Chunki hech kimga sir emaski, bugungi kunda yoshlarning kattalashuvi, vo- yaga yetishi juda jadal amalga oshmoqda. Yuqoridagicha guruhlashga ko'ra bir demografik yosh guruhiga kirgan 20 va 24 yoshlilarning yetukligi sifat jihatidan turli darajaga egadirlar. 25 va 29 yoshdagilar haqida ham xuddi shunday deyish mumkin.

29 yoshga kelib kasb-hunar yetukligi nihoyasiga yetadi va bu davrga kelib aksariyat yoshlar oila qurib bo'lgan va xatto farzandli bo'lishga ham ulgurishadi. Shunday qilib, 29 yoshdagi yoshlar 25 yoshdagilarga qaraganda hayotiy tajribalariga ko'ra ham va boshqa asosiy komponentlarga ko'ra ham sezilarli darajada farqlanib turadi.

Yosh oilalarda er-xotin munosabatlari o'ziga xos hududiy, etnik, jinsiy, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan er-xotin munosabatlari

shakllanishining eng nozik va hal qiluvchi shakli hisoblanadi. U yoki bu yosh oilaga xos bo'lgan er-xotin munosabatlari boshqa bir er-xotininga mos kel- masligi mumkin. Chunki yosh oilani yuzaga keltirgan er-xotinlar turli xil shaxslararo munosabatlar tizimi, turlicha taomilga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalangan, shaxs sifatida shakllangan individlardan tashkil topadi. Lekin shunga qaramasdan maxsus psixologik tadqiqotlarda va ulardan olingan natijalar asosida yozilgan ilmiy psixologik adabiyotlarda yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining umumiy mexanizmlarga oid tegishli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Umuman yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining qay tarzda rivojlanishi avvalo shu yosh oilaning yuzaga kelishiga asos bo'lgan nikoh oldi omillarining xarakteriga, shu oilalar- ning yuzagakelish shart-sharoitlari bilan uzviy bog'liqdir. Bular haqida oldingi mavzuda qisman to'xtalib o'tdik.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, muammoli inqirozli oilalar jamiyatimizga salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Buning oldini olish uchun barchamiz birdek mas'ulmiz va befarq bo'lmasligimiz kerak va shartdir. Bu bilan to'liq oilalarning sonini oshishini ta'minlashimiz ko'effisenti oshadi. Va men shuni yana ta'kidlab aytamanki, jamiyatimizda to'liq oila bo'lishi jamiyatimizni yaxlit bir butun tizim sifatida shakllanadi va bu esa davlatni yanadayam qudratli bo'lishini ta'minlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 bet.
2. Sh.Mirziyoyev Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: “O'zbekiston”, 2018.
3. Sh.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarning kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent. “O'zbekiston”, 2017.
4. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Shayx Hazratlarining “Baxtiyor oila”, “Sog'lom bola”, “Ijtimoiy odoblar” kitoblari.